


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026 - yil 1- yanvar holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 18 461 tani tashkil etadi, shundan 15 208 tasi yoki 82,4 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,2 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 112,4 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
2026	18 461	15 300	15 208
2025	16 606	13 612	13 534
2024	19 923	16 759	16 677
2023	25 827	22 551	22 474
2022	22 714	19 538	19 463

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Jizzax shahrida – 26,6 foiz, Sharof Rashidov – 14,9 foiz, G'allaorol – 8,8 foiz va Zomin – 8,7 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Jizzax shahrida – 27,5 foiz va 27,5 foiz, Sharof Rashidov – 15,6 va 15,6 foiz, G'allaorol – 8,7 foiz va 8,7 foiz hamda Zomin – 8,6 foiz va 8,6 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
Jizzax shahar	4 912	4 212	4 179
Arnasoy tumani	907	786	785
Baxmal tumani	1 387	1 098	1 092
G'allaorol tumani	1 626	1 332	1 325
Sharof Rashidov tumani	2 745	2 382	2 371
Do'stlik tumani	640	462	459
Zomin tumani	1 608	1 313	1 303
Zarbdor tumani	869	705	702
Mirzacho'l tumani	582	430	427
Zafarobod tumani	587	477	473
Paxtakor tumani	917	735	730
Forish tumani	1 214	1 003	997
Yangiobod tumani	467	365	365

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-yanvar holatiga 27,9 foizni (33,7 foiz va 33,8 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 16,0 % (19,0 % va 19,1 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 11,7 % (14,1 % va 14,0 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 947	2 907	2 904
Sanoat	2 164	2 158	2 127
Qurilish	1 226	1 209	1 204
Savdo	5 156	5 155	5 145
Tashish va saqlash	394	390	389
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 268	1 265	1 264
Axborot va aloqa	252	237	237
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	451	272	268
Boshqa turlar	4 603	1 707	1 670

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 15 300 ta faol tijorat korxonalaridan 12 172 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	12 172	79,6
Xususiy korxonalar	1 795	11,7
Oilaviy korxonalar	1 122	7,3
Aksiyadorlik jamiyati	13	0,1
Boshqalar	198	1,3

Shundan kelib chiqib, MChJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 258 ta korxonalardan 107 tasi qo'shma korxonalar va 151 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 57 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasida 102 tadan 133 taga (o'sish 21 taga) axborot va aloqa sohasida 21 tadan 26 taga (o'sish 5 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasidagi korxonalar sonining 22 tadan 29 taga, (o'sish 7 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	258	107	151
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29	14	15
Sanoat	133	73	60
Qurilish	14	5	9
Savdo	30	9	21
Tashish va saqlash	5	-	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	1	5
Axborot va aloqa	26	2	24
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-
Boshqa turlar	15	3	12

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 89 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 34,5 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkiya (20,9 %), Rossiya Federatsiyasi (15,5 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	258	107	151
Xitoy	89	34	55
Turkiya	54	21	33
Rossiya	40	18	22
Arabiston	6	2	4
AQSH	5	3	2
Boshqalar	64	29	35

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq

Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
regisrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
J. Djuzbayev
72 221-54-00
(ichki raqam 2560)

Manzil:
130100, Jizzax sh.
To'qimachilar ko'chasi, 7
